

**DINIY FOLKLORIZMLAR VA ULARNING TARIXIY ROMAN
BADIYATIDAGI FUNKSIYASI**
(ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY” ROMANI MISOLIDA)

Tosheva Nilufar Shirinboyevna,

Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, f.f.b.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada diniy folklorizmlar va ularning tarixiy roman badiyatidagi funksiyasi “Alisher Navoiy” romani misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda diniy-e’tiqodiy qarashlarga asoslangan folklor motivlari, rivoyatlar va mifologik obrazlarning badiiy matndagi transformatsiyasi, ularning semantik va estetik yuklamasi ilmiy asosda yoritiladi. Asarda payg’ambarlar haqidagi rivoyatlar, muqaddas obrazlar hamda e’tiqodiy qarashlar orqali qahramon xarakterini ochish, tarixiy voqelikni legitimatsiya qilish va badiiy umumlashuvga erishish mexanizmlari aniqlanadi. Shuningdek, diniy folklorizmlarning arxetipik asoslari, ularning mifopoetik tafakkur bilan bog‘liqligi hamda kompozitsion va g‘oyaviy funksiyalari zamonaviy folklorizm nazariyalari asosida izohlanadi.

Kalit so‘zlar: diniy folklorizm, tarixiy roman, Alisher Navoiy, mifologik obraz, rivoyat, arxetip, legitimatsiya, badiiy tafakkur.

Аннотация. В данной статье анализируются религиозные фольклоризмы и их функция в художественной структуре исторического романа на примере “Alisher Navoiy” Исаджона Султана. Рассматриваются трансформация фольклорных мотивов, основанных на религиозно-вероятельных представлениях, а также их семантическая и эстетическая нагрузка в художественном тексте. Особое внимание уделяется роли религиозных преданий, мифологических образов и сакральных символов в раскрытии характера героя, легитимации исторической реальности и формировании художественного обобщения. Кроме того, исследуются архетипические основы религиозных фольклоризмов, их связь с мифопоэтическим мышлением, а также их композиционные и идейные функции.

Ключевые слова: религиозный фольклоризм, исторический роман, Alisher Navoiy, мифологический образ, предание, архетип, легитимация, художественное мышление.

Abstract. This article analyzes religious folklorisms and their function in the poetics of the historical novel, based on “Alisher Navoiy” by Isajon Sulton. The study explores the transformation of folkloric motifs rooted in religious beliefs, as well as their semantic and aesthetic roles within the literary text. Particular attention is paid to the role of religious narratives, mythological images, and sacred symbols in character construction, the legitimation of historical reality, and the formation of artistic generalization. Furthermore, the research examines the archetypal foundations of religious folklorisms, their connection with mythopoetic thinking, and their compositional and ideological functions.

Keywords: religious folklorism, historical novel, Alisher Navoiy, mythological image, narrative, archetype, legitimation, artistic thinking.

Kirish. Diniy folklorizmlar tarixiy romanlarda bir necha shakllarda namoyon bo‘ladi. Ularning muhim ko‘rinishlaridan biri diniy rivoyatlar va afsonalar bilan bog‘liq folklor motivlaridir. Xalq orasida avliyolar, muqaddas shaxslar yoki diniy qahramonlar bilan bog‘liq rivoyatlar tarixiy romanlarda muayyan davrning ruhiy muhitini tasvirlashda muhim badiiy vosita sifatida qo‘llaniladi. Bu rivoyatlar orqali yozuvchi xalqning diniy tasavvurlarini hamda tarixiy shaxslarning xalq ongidagi obrazini ochib beradi.

Adabiyotlar tahlili. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida islom dini mazmun-mohiyati singdirilgan, xalq tafakkuri bilan qorishtirilgan folklorizmlar juda ko‘p o‘rinda kelgan.

“– Xuroson momolikida ulug‘ bayram! Shohruh Mirzo bundan ikki yil avval Allohning uyiga kisva, ya’ni yopinchiq yopishga izn olgach, nafis va pishiq matolardan tayyorlatib, Shayx Nuriddin va mavlono Shamsiddin birla Ka’ba ustiga yoptirgan edi. Bugun o‘sha karvon Makkadan yetib keldi. Ming shukur, turk yopinchiq‘i endi Ka’ba ustidadir, – dedi ozg‘in baland bo‘yli bir hunarmand shodligini yashirolmay”.

Ka’baning ustiga yopinchiq yopish davlat kuch-qudratini bildirgan. Xalq tafakkuriga ko‘ra Ka’ba ustiga yopinchiq yopgan davlat kuchli, boy bo‘ladi deya ishonch bo‘lgan. Qur’oni karimda Ka’baning qurulishi Ibrohim (a.s) va o‘g‘li Ismoil (a.s)larning nomi bilan bog‘liqdir.

Islom dinida Ka’ba muqaddas joy hisoblanadi. Arablarda “ka’ba” so‘zi yuksak uyga nisbatan qo‘llanadi. Ka’ba arablar tarafidan turli yillarda qurilgan bu haqida xalq orasida turli xil rivoyatlar ham mavjud.

“Payg‘ambarlar tarixi” kitobida berilgan bir rivoyatga ko‘ra Alloh samo xalqi Bayti Ma’murni tavof qilgani kabi yer yuzidagi insonlarning ham tavof qilishi uchun Bayti Ma’murning o‘xshashini malaklar orqali ilk Ka’bani qurdirgan ekan. Ka’ba ikkinchi marta Odam (a.s) tomonidan qurilar ekan. Odam (a.s) vafot etganidan keyin uning o‘g‘illari Ka’bani tosh va loydan quradilar. To‘fondan keyin ushbu Ka’baning izi yo‘qoladi. Ka’ba qizil kesakli tepalik ko‘rinishida saqlanadi. O‘sha davrlarda har tomondan zulm ko‘rganlar kelib bu yerda sig‘inishgan. Dardlarini aytishgan va ibodat qilishgan.

“Ismoil (a.s) otasi Ibrohim (a.s.) vafotidan so‘ng Ka’ba va hajga oid amallarni boshqardi. Avvalo Ka’baning ustini mato bilan yopdi”.

Ka’baning ustidagi yopinchiq‘ining kelib chiqishi haqida xalq orasida xuddi shunday rivoyatlar tarqagan edi.

Yuqorida tarixiy romandan keltirilgan parchaa diniy-e’tiqodiga xos folklorizm nuqtayi nazaridan tahlil etilganda, unda xalqona diniy tafakkur, muqaddas diniy makon tasavvuri hamda tarixiy voqelikning ramziy-estetik talqini uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Bu esa matnni oddiy tarixiy axborot emas, balki folklorizm elementlari bilan boyitilgan badiiy matn sifatida baholash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqimizga ko‘ra rivoyatning markazida e’tiqod va zulm o‘rtasidagi ziddiyat turadi. Bu qarama-qarshilik diniy mazmunga ega bo‘lishiga qaramay, uning ifoda shakli folkloriga xos qahramonlik xususiyati orqali beriladi. Yigitlarning zolim hukmdorga qarshi chiqishi, ularning ichki qat’iyati va e’tiqod yo‘lidan qaytmasligi xalq og‘zaki ijodida keng uchraydigan “haqiqat yo‘lida kurashuvchi qahramon” arxetipini eslatadi. Shu jihatdan, diniy voqea xalqona qahramonlik paradigmasi bilan uyg‘unlashib, folklorizmning badiiy ko‘rinishiga aylanadi.

Tahlillar va natijalar. Avvalo, Ka'bage kisva yopish voqeasining bayram sifatida talqin qilinishi muqaddas yerning xalq ongida tantanali va muqaddas marosim darajasiga ko'tarilganini ko'rsatadi. Bu yerda Ka'ba markaziy muqaddas makon, kisva esa muqaddaslikni yangilovchi va mustahkamlovchi ramziy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Folklorizmda bunday tasvirlar ko'pincha muayyan voqeaning diniy-ma'naviy ahamiyatini oshirish, uni xalq ongida barqarorlashtirish vazifasini bajaradi. Shuningdek, "Allohning uyi", "ming shukr" kabi iboralar matnda xalqona diniy nutq modelini yuzaga keltiradi. Bu unsurlar diniy e'tiqodning individual emas, balki millat ifodasi sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, hunarmand obrazining shodligi orqali voqeaning keng omma tomonidan qabul qilinishi tasvirlanadi. Bu holat folklorizmga xos bo'lgan hissiyot va umumxalq quvonchi motivini ifodalaydi.

Matnda Shohruh Mirzo nomining tilga olinishi tarixiy shaxsning diniy kontekstda ulug'lanishini bildiradi. Bu esa folklorizmning muhim jihatlaridan biri tarixiy shaxsni ulug' qilib ko'rsatish va uning faoliyatini diniy xizmat sifatida talqin qilish bilan bog'liq. Ya'ni tarixiy voqea oddiy siyosiy yoki ijtimoiy hodisa emas, balki ilohiy irodaga daxldor amaliyot sifatida ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, karvonning Makkadan kelishi motivi ziyorat va muqaddas safar (haj) bilan bog'liq folklorga xos tasavvurlarni eslatadi. Karvon obrazi xalq og'zaki ijodida ko'pincha muqaddaslik, baraka va xushxabar olib keluvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Bu yerda ham karvon kelishi umumiy bayram va quvonch bilan bog'langan.

"Xushxabarni eshitgan tevarakdagi yoyma do'kon egalari savob bo'lsin degan ilinjda o'tgan-ketganni, ayniqsa, bolalarni Mashhad halvosi, Damashq qurobiasi, Juzjon xandon pistasi-yu Shibirg'on Shirin kulchasi kabi ne'matlar bilan siylashardi".

Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, yuqorida berilgan matnda aks etgan ehson qilish odati xalqona tafakkur va diniy-e'tiqodiy qarashlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, folklorizmning muhim ko'rinishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Xalqimizda quvonchli voqea munosabati bilan atrofdagilarga ne'matlar ulashish holati xalq og'zaki an'analarida shakllangan shukronalik marosimining badiiy ifodasidir.

Avvalo, ehson qilish motivi xalq ongida "baraka ulashish" va "savob orttirish" tushunchalari bilan uzviy bog'liq. Matnda "savob bo'lsin degan ilinjda" iborasining qo'llanishi ushbu amalning diniy-ma'naviy asosga ega ekanini ko'rsatadi. Bu esa folklorizmning asosiy belgilaridan biri marosim va e'tiqodga xos tasavvurlarning badiiy matnga singdirilishi bilan xarakterlanadi. Ehson qilish bu yerda oddiy saxovat emas, balki xalq ongida mustahkam o'rin olgan diniy-axloqiy qadriyatning ifodasidir.

Matnda sanab o'tilgan Mashhad halvosi, Damashq qurobiasi, Juzjon pistasi, Shibirg'on kulchasi kabi ne'matlar esa nafaqat moddiy boylik belgisi, balki hududiy, milliy-madaniy rang-baranglikni aks ettiruvchi folklorga oid detallardir. Bu kabi konkretlashtirilgan tasvirlar tarixiy roman badiiyatida voqelikni jonlantirish, muhitni

milliy ruhda ifodalash vazifasini bajaradi. Demak, folklorizm bu yerda etnografik detal sifatida ham faol ishtirok etmoqda.

Ehson jarayonining, ayniqsa, bolalar va o‘tkinchilarga qaratilishi esa xalq og‘zaki ijodida keng uchraydigan mehr-oqibat va ijtimoiy birdamlik motivi bilan bog‘liq. Bu orqali muallif jamiyatdagi insoniylik, saxovat va hamjihatlik g‘oyalarini badiiy shaklda ilgari suradi. Shu jihatdan ehson qilish epizodi nafaqat diniy marosim, balki ijtimoiy-axloqiy model sifatida ham talqin etiladi.

Tarixiy roman kontekstida ushbu motivning badiiy funksiyasi bir necha qatlamda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, u voqea sodir bo‘layotgan davr ruhini, xalqning turmush tarzini va e‘tiqodiy dunyoqarashini ishonchli tasvirlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, u obrazlar xarakterini ochishda muhim vosita bo‘lib, do‘kon egalari orqali saxovatli va e‘tiqodli inson tipi yaratiladi. Uchinchidan, ehson motivi umumiy syujetda quvonch, baraka va ijobiy ruhiy muhitni kuchaytiruvchi poetik vosita vazifasini bajaradi.

“Ayni zamonda maydonda Shayx Nuriddin karvoni olib kelgan Zamzam suvi tarqatilardi.

– Oh-oh,qudratingdan aylanay!

– Hoy,shoshmang,zamzamning ma’nosini bilasizmi?

– Bo‘lmasam-chi? Hojar ona suv istab ikki tog‘orasida yugurganida qum-tosh orasidan o‘z-o‘zidan qaynab chiqqan zilol-da.

– Ha yer yuzida unday buloq sira yaratilmadi.Suv esa shunday qaynab chiqdiki, Hojar ona qo‘rqqanidan uni “Zam! Zam!” deya ura-ura to‘xtatdi”.

Ushbu tarixiy romanda Isajon Sulton folklorizmning murakkab turidan juda ko‘p o‘rinda foydalangan.Romanni o‘qir ekanmiz ba’zi xalqimiz orasida uchraydigan rivoyatlarning badiiy matnlarga singdirib yuborilganini guvohi bo‘lamiz.Yuqoridagi parchada ham Zamzam qudug‘i haqidagi diniy rivoyatni o‘quvchi o‘zi topib o‘qishga majbur bo‘ladi.

“Payg‘ambarlar tarixi” kitobidagi ma’lumotlarga ko‘ra Ibrohim payg‘ambar Sora ismli qarindoshiga uylanadi.Ammo ularning farzandi bo‘lmaydi.Sora qo‘lidagi xizmatkori Hojar bilan turmush qurishini aytadi.Ibrohim payg‘ambar hojardan o‘g‘il farzand ko‘radi va ismini Ismoil qo‘yadi.Alloh Ibrohim payg‘ambarga Hojar va Ismoilni Makkaga etib tashlashni buyuradi.Ibrohim payg‘ambar ularni Makkaga olib kelib tashlaydi.U yerda hech narsa o‘smasdi,suv ham yo‘q edi.Hojar o‘g‘lini bir darxt soyasiga yotqizdi.Ancha vaqtdan so‘ng ularning hech narsasi hatto suvi ham qolmaydi.Hojar bolasining ochlikdan o‘lib qolmasligi uchun rizq ilinjida Safo va Marva tepaliklariga yeti marta borib keladi.Hojar Marvaga chiqqanida Allohdan bir vahiy keladi-da, to‘xtaydi.Shunda bir farishta ko‘rinadi.Farishtaga Hojar o‘zini tanitadi,Ibrohim payg‘ambar ularni Allohga topshirib ketganligini aytadi.Shunda farishta oyog‘i bilan yerga tepgan edi yerdan suv qaynab chiqadi.

Ushbu parcha diniy-e'tiqodiy folklorizm nuqtayi nazaridan tahlil etilganda, unda diniy rivoyat, xalq diniy tasavvurining uyg'unlashuvi yaqqol namoyon bo'ladi. Bu esa matnni tarixiy voqelik fonida berilgan, ammo folklorga xos ong orqali qayta talqin qilingan badiiy struktura sifatida baholash imkonini beradi.

Zamzam suvi bilan bog'liq epizod islomiy an'analarda muhim o'rin tutuvchi Hojar onaning sahroda suv izlab yugurishi haqidagi rivoyatga asoslanadi. Ushbu voqea diniy manbalarda mavjud bo'lsa-da, matnda u xalq og'zaki tafakkuriga xos sodda va obrazli shaklda qayta hikoya qilinadi. Ayniqsa, "Zam! Zam!" deya suvni to'xtatish tasviri rivoyatning folklor variantlarida uchraydigan etimologik izohlash usulini eslatadi. Bu holatda "Zamzam" nomi xalqona talqin orqali tushuntiriladi, bu esa folklorizmning muhim belgilaridan biridir.

Shuningdek, parcha dialog shaklida berilgani orqali diniy bilimning xalq orasida qay darajada talqin qilinishi aks ettiriladi. "Zamzamning ma'nosini bilasizmi?" kabi savol-javoblar xalq orasida rivoyat va e'tiqodlarning qanday tarqalishini ko'rsatadi. Bu jihat folklorizmnda muhim bo'lgan kommunikativ funksiya, ya'ni og'zaki an'ana orqali bilim va e'tiqodlarni avloddan avlodga yetkazish vazifasini ochib beradi.

Matnda Zamzam suvining "yer yuzida tengi yo'q" deb ulug'lanishi esa suvning xalq orasida muqaddas qilib ko'rsatilishi ifodalanadi. Ya'ni oddiy suv emas, balki ilohiy mo'jiza natijasida paydo bo'lgan muqaddas ne'mat sifatida talqin qilinadi. Bu esa diniy-e'tiqodiy folklorizmning asosiy xususiyatlaridan biri tabiiy hodisani ilohiylashtirish va ramziy ma'noda ulug'lash bilan bog'liqdir.

Tarixiy roman kontekstida ushbu epizodning badiiy funksiyasi ko'p qatlamli xarakterga ega. Birinchidan, u voqea sodir bo'layotgan davrning diniy muhitini, xalqning e'tiqod darajasini va dunyoqarashini jonli tasvirlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, Zamzam suvi tarqatilishi orqali syujetda baraka, poklanish va ruhiy yuksalish motivlari kuchaytiriladi. Uchinchidan, rivoyatning kiritilishi matnning badiiy-estetik qimmatini oshirib, uni mifopoetik rang bilan boyitadi.

"Gildan, ya'ni qizil tuproqdan yashil poya, qizil gulkosa chiqarib, ajoyib bir san'at bunyod qilding. Ammo uni yana tuproqqa qaytadigan qilding. Sening qudrating shundayki, butun bir qo'shinni eng haqir chibin ila mag'lub etasan istasang, zaif qushcha tumshug'idagi tosh bilan bahaybat fillarni tumtaraqay qilasan".

Adib yuqoridagi parchada ikki o'rinda ikkita diniy rivoyatga ishora qilmoqda. Allohning qudratini kitobxonga anglatmoq uchun bu ikki diniy rivoyatni folklorizm sifatida qo'llagan.

Qur'oni karimda yozilishicha: Firavn va uning qavmi islom dinini qabul qilmagandan so'ng, Alloh ularga dahshatli balolarni yuboradi. Ularning barcha ekinzor bog'larini sel bosib halok qiladi. Chigirtkalar ularning meva va ekin hosillaridan tortib uy-joy, kiyim-boshlarigacha yeb bitirishadi. Ularning yegulik va jonivorlarini bitlar bosib

ketadi. Baqalar esa ularning taom va quduqlaridan tortib yotoqxonalarigacha to'ldirib yuborishdi. Ularning ariq va buloqlaridan suv o'rniga qon oqadi, bir yutum toz suv topa olmay qolishadi.

Tarixiy romanlarda diniy rivoyatlar qahramon obrazini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, payg'ambarlar, valiyalar, donishmand shaxslar bilan bog'liq rivoyatlar qahramonning ichki dunyosini yoritishda, uning axloqiy-ruhiy qiyofasini belgilashda vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday rivoyatlar orqali qahramonning e'tiqodi, sabr-toqati, irodasi, ilohiy haqiqatga munosabati ochib beriladi. Shu bilan birga, diniy rivoyatlar qahramonning tarixiy sahnadagi o'rnini asoslash, uning harakatlarini ma'naviy jihatdan ochiqlash vazifasini bajaradi. Bu holatda rivoyat qahramonni oddiy tarixiy shaxs darajasidan chiqarib, uni timsollashtirilgan obrazga aylantiradi.

Diniy rivoyatlarning yana bir muhim funksiyasi tarixiy voqelikni metaforik talqin qilishdir. Tarixiy romanlarda ko'pincha real voqealar diniy rivoyatlar orqali ramziy ifodalanadi. Masalan, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash, adolatning g'alabasi yoki zulmning jazolanishi kabi universal g'oyalar rivoyatlar asosida badiylashtiriladi. Bu jarayonda rivoyat poetik transformatsiyaga uchraydi, ya'ni u o'zining dastlabki shaklidan chiqib, yangi badiiy kontekstda qayta talqin etiladi. Natijada rivoyat matn ichida intertekstual birlik sifatida faoliyat ko'rsatadi va asarning umumiy semantik tizimiga xizmat qiladi.

Tarixiy romanlarda diniy rivoyatlar vaqt va makon kategoriyalarini kengaytirish funksiyasini ham bajaradi. Rivoyatlar orqali muallif voqeani konkret tarixiy davr bilan cheklab qo'ymaydi, balki uni abadiy, universal mazmunga ega hodisa sifatida talqin qiladi. Bu esa tarixiy roman poetikasida xronotopning murakkablashuviga olib keladi. Ya'ni voqealar bir vaqtning o'zida ham tarixiy, ham mifologik, ham diniy makonda sodir bo'layotgandek tasavvur uyg'otadi. Natijada asarda ko'p qatlamli vaqt modeli shakllanadi, bu esa o'quvchining estetik idrokini chuqurlashtiradi.

Diniy rivoyatlar tarixiy romanlarda xalq xotirasini tiklash va milliy identitetni shakllantirish vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Ular xalqning tarixiy tajribasi, e'tiqodi va qadriyatlarini o'zida mujassam etganligi sababli, badiiy matnda milliy ruhni ifodalashning samarali vositasiga aylanadi. Ayniqsa, mustaqillik davri tarixiy romanlarida diniy rivoyatlar milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani qayta tiklash jarayonida faol qo'llaniladi. Bu jarayonda rivoyatlar nafaqat estetik, balki ideologik funksiyani ham bajaradi, ya'ni ular orqali muallif milliy qadriyatlarni targ'ib qiladi, tarixiy adolatni tiklash g'oyasini ilgari suradi.

Kuzatishlarimizga qaraganda tarixiy romanlarda diniy rivoyatlarning kompozitsion funksiyasi ham alohida e'tiborga loyiqdir. Ular ko'pincha asar syujetida burilish nuqtalarini belgilaydi, voqealar rivojiga turtki beradi yoki ularni yakunlaydi. Ba'zan rivoyat asar ichida mustaqil epizod sifatida beriladi, ba'zan esa qahramonning xotirasi,

tushlari yoki mulohazalari orqali ifodalanadi. Bu esa rivoyatning narrativ struktura bilan uyg'unlashuvini ta'minlaydi. Natijada diniy rivoyat matnning ichki dinamikasini kuchaytiruvchi, uning kompozitsion yaxlitligini ta'minlovchi omilga aylanadi.

Shu bilan birga diniy rivoyatlar tarixiy romanlarda konflikt yaratish va uni hal etish mexanizmi sifatida ham namoyon bo'ladi. Rivoyat asosida qurilgan badiiy vaziyatlar orqali muallif ijtimoiy, axloqiy va falsafiy muammolarni yoritadi. Masalan, inson va taqdir, erkinlik va majburiyat, e'tiqod va shubha o'rtasidagi ziddiyatlar diniy rivoyatlar orqali badiiy ifodalanadi. Bu esa asarning dramatik kuchini oshiradi, o'quvchini chuqur mulohazaga undaydi.

Diniy rivoyatlar tarixiy roman poetikasida ko'p funksiyali badiiy komponent sifatida faoliyat yuritadi. Ular matnning semantik, kompozitsion, ideologik va estetik qatlamlarini boyitadi, tarixiy voqelikni umumlashgan badiiy model darajasiga ko'taradi. Eng muhimi, diniy rivoyatlar orqali tarixiy roman nafaqat o'tmishni tasvirleydi, balki uni ma'naviy-falsafiy jihatdan anglash imkonini yaratadi. Bu esa tarixiy roman janrining badiiy salohiyatini kengaytirib, uni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ifodachisi sifatida namoyon etadi.

Rivoyat qilinishicha, Ka'batullohni vayron qilish uchun kelgan fil mingan lashkarlarni qushlar tomonidan ularga qarata otilgan toshchalar dushmanning boshidan teshib kirib, ostidan chiqib ketgan ekan. Abobil qushi o'sha voqeadan beri arab davlatlarida muqaddas qush hisoblanar ekan.

"Alisher Navoiy" romanidagi diniy rivoyatlar ham yuqorida aytib o'tilgan funksiyalarni bajarmoqda.

"Gohi, ul yaqinlik, sherimardlikni shu itga nisbat beradi (Kahf itiga). Gohi bir aso – tayoqqa Suloymonlik qudratini ato etadi (Suloymon payg'ambar suyangan aso haqida so'z bormoqda), gohida bir chumoliga so'zlash iste'dodini tuhfa qiladi (Suloymon payg'ambar bilan so'zlashgan chumoli haqida so'z bormoqda). Gohida asoni ajdarhoga aylantiradi va tandirdan to'fon chiqaradi. Toshidan o'rkachli tuyalar chiqaradi, oltin sigirni zorlanib nola qilishga majbur etadi".

Kahf iti rivoyatlarga qaraganda Iso alayhissalom davridan keyin Rum hududlaridan birida Daqyonus nomli zolim hukmdor paydo bo'lib, xalqni butlarga sig'inishga majbur etadi. Uning buyrug'iga bo'ysunmaganlarni esa qattiq jazolaydi. Shunday vaziyatda bir guruh yosh yigitlar uning hukmronligiga qarshi chiqib, yagona Allohga e'tiqod qilishlarini ochiq bildiradilar. Podshoh ularni huzuriga chorlab, haqiqatni so'rganida, ular qat'iyat bilan faqat Allohga sig'inishlarini aytadilar.

Podshoh yigitlarning go'zalligi, aql-zakovati va jasoratidan ta'sirlanib, darhol ularni jazolashga jur'at etolmaydi. U ularga ertaga javob berish sharti bilan vaqt beradi. Bu orada yigitlar o'zaro maslahatlashib, Alloh yo'lidan qaytmaslikka qaror qiladilar va shaharni tark

etib, bir g'orga yashirinadilar. Ular bilan birga bir cho'pon va uning iti ham yo'lga chiqadi. G'orga yetib borib, ular o'zlarini yashirishadi.

Ertasi kuni bu holatdan xabar topgan podshoh askarlari bilan g'or tomon yo'l oladi. G'or og'ziga yaqinlashgan askarlar ichkariga kirishga qo'rqadilar. Shundan so'ng Daqyonus ularni g'orda qamab qo'yish maqsadida og'zini berkitishni buyuradi. Biroq Alloh taolo o'ziga sodiq bandalarini asraydi va ularni uzoq muddatli uyquga g'arq etadi.

Yigitlar bu holatdan bexabar holda, uzoq vaqt uch yuz yilcha uxlab yotadilar. Uyg'onganlarida esa buni qisqa muddat, go'yoki yarim kunlik uyqu deb o'ylaydilar. Ochlik sezgan yigitlaridan biri ehtiyotkorlik bilan shaharga oziq-ovqat xarid qilish uchun yuboriladi. U bozorda qadimiy tangani uzatganida, sotuvchi bundan hayratga tushib, bu tanga Daqyonus davriga oid ekanini aytadi. Yigit esa buni tushunmay, o'z zamonidan kelgan oddiy pul ekanini bildiradi.

Bu voqea tezda odamlarga ma'lum bo'ladi va yigitni podshoh huzuriga olib borishadi. Yangi podshoh esa mo'min va adolatli inson bo'lib, voqeani eshitgach, u bilan birga g'or tomon boradi. G'ordagi yigitlar bu holni o'z do'stlarining qo'lga tushgani deb o'ylab, ibodat bilan mashg'ul bo'ladilar. Podshoh va uning hamrohlar g'orga kirib, ularni namoz holatida ko'radilar. Shundan so'ng podshoh yigitlar bilan uchrashib, ularning boshidan kechirgan voqealarni tinglaydi.

Ushbu hodisa Alloh taoloning buyuk qudratini, ya'ni o'liklarni qayta tiriltirish mumkinligini ko'rsatuvchi dalil sifatida talqin etiladi. Shu bois bu voqea Qiyomat kunidagi hisob-kitobning haqligiga ishora qiluvchi ilohiy alomat sifatida e'tirof etiladi. Mazkur rivoyat Qur'oni karimdagi "Ashobul-Kahf" haqidagi oyatlar bilan uyg'un holda talqin qilinadi.

"Ashobul-Kahf" rivoyati diniy manba asosida shakllangan bo'lsa-da, u keyingi davrlar davomida xalq tafakkuri, og'zaki an'ana va badiiy talqinlar ta'sirida folklorizm hodisasiga aylangan murakkab ma'naviy-estetik tizimni ifodalaydi. Ushbu rivoyatning o'ziga xosligi shundaki, unda ilohiy haqiqat bilan xalqona tasavvur unsurlari o'zaro uyg'unlashib, yangi semantik mazmunni yuzaga keltirgan.

G'or obrazi rivoyatda markaziy ramz sifatida ishtirok etadi. U faqat jismoniy panoh emas, balki ma'naviy o'zgarish, saqlanish va yangilanish makonini bildiradi. Folklor tafakkurida g'or ko'pincha o'tish nuqtasi, ya'ni eski holatdan yangi bosqichga o'tish ramzi sifatida talqin qilinadi. "Ashobul-Kahf"da yigitlarning g'orga kirib, uzoq uyquga ketishi va keyin uyg'onishi bu jarayonning diniy-mifologik ifodasidir. Bu holat bir tomondan ilohiy mo'jiza sifatida tushunilsa, ikkinchi tomondan, folklorga xos "vaqtni yengib o'tish" motivi bilan bog'lanadi.

Rivoyatda aks etgan uzoq uyqu hodisasi ham folklorizmning muhim belgilaridan biridir. Xalq og'zaki ijodida "uyqudagi qahramon" motivi ko'p uchraydi va u odatda favqulodda voqea yoki mo'jizaviy o'zgarish bilan yakunlanadi. Bu yerda esa mazkur

motiv diniy mazmun bilan boyitilib, Allohning qudratini isbotlovchi dalil sifatida talqin etiladi. Shu tariqa, mifologik tasavvur va diniy aqida bir-birini to'ldirib, yagona badiiy tizimni hosil qiladi.

Rivoyatda it obrazining mavjudligi ham folklorizmning yorqin ko'rinishidir. Xalq an'analarida it sadoqat, himoya va yo'ldoshlik timsoli sifatida qaraladi. Yigitlar bilan birga g'orga kirgan it ham shu ramziy ma'noni o'zida mujassam etadi. Bu detal diniy rivoyat tarkibida xalqona obrazlar tizimining faol ishlatilganini ko'rsatadi.

Mazkur rivoyatning yana bir muhim jihati uning didaktik yo'nalishidadir. U nafaqat diniy qarashlarni mustahkamlashga xizmat qiladi, balki axloqiy qadriyatlarni ham targ'ib etadi. Sadoqat, sabr, e'tiqodga sodiqlik kabi tushunchalar rivoyat orqali xalq ongiga singdiriladi. Bu esa uni xalq og'zaki ijodiga xos tarbiyaviy funksiyani bajaruvchi matnga aylantiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Diniy rivoyatlar, mifologik obrazlar va e'tiqodiy qarashlar orqali muallif tarixiy haqiqatni **asoslaydi**, uni mifopoetik umumlashuv darajasiga ko'taradi hamda milliy-madaniy xotirani badiiy shaklda rekonstruksiya etadi. Shu jihatdan diniy folklorizmlar roman kompozitsiyasida semantik markaz vazifasini bajarib, asarning ideologik, estetik va konseptual yaxlitligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Ленинградского университета 1986. – Б22.
2. Веселовский А. Н. Историческая поэтика. – Москва: Высшая школа, 1989. – С. 255–256.
3. Азбелев С. Н. Историзм былин и специфика фольклора. – Ленинград: Наука, 1982. – 56 с.
4. Ong W. J. Orality and Literacy: The Technologizing of the Word. – London–New York: Routledge, 1982. – P. 63–77.
5. Lord A. B. The Singer of Tales. – Cambridge: Harvard University Press, 1960. – P. 66–98.
6. Isajon Sulton. Abu Rayhon Beruniy. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2023.
7. Payg'ambarlar tarixi. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – B 180
8. Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima. Alouddin Mansur tarjimasi. – Toshkent: Qur'oni karimni o'rganish ilmiy markazi, 2004.